



IBN SINONING LOTIN TILIGA TARJIMA QILINGAN ASARLARI VA ULARNING FAN TARIXIDAGI AHAMIYATI

Norxujayev Shaxboz Xusanjon o`g`li

Farg`ona davlat universiteti Tarix fakulteti Tarix (mamlakatlar
va mintaqalar bo`yicha) yo`nalishi III bosqich talabasi

Annotatsiya: Mazkur maqolada o`rta asrlar Musulmon Sharq olamida, Markaziy Osiyo hududida yetishib chiqqan buyuk alloma, qomusiy olim Abu Ali ibn Sinoning hayot tarzi, ilmiy merosi, xususan, umri davomida yaratgan asarlari va amalga oshirgan ilmiy izlanishlari haqida qisqacha ma`lumotlar bayon qilingan. Shuningdek, olimning asarlari orasida lotin tiliga tarjima qilinganlari va ularning ilm-fan taraqqiyoti uchun qanchalik katta ahamiyatga ega bo`lganligi to`g`risidagi fikrlar keltirilgan.

Kalit so`zlar: Abu Ali ibn Sino, Buxoro, Isfahon, Hamadon, Abu Rayhon Beruniy, Abu Sahl Masihiy, Gurganch, tibbiyot, falsafa, “Tib qonunlari” asari.

Аннотация: В данной статье собраны краткие сведения об образе жизни, научном наследии великого учёного и энциклопедиста Абу Али ибн Сины, выросшего в средние века в ближневосточном мусульманском мире, на территории Средней Азии. Также среди работ ученого есть мнения о переводах на латынь и о том, насколько они важны для развития науки.

Ключевые слова: Абу Али ибн Сина, Бухара, Исфахан, Хамадан, Абу Райхан Беруни, Абу Сахл Машихи, Гурганч, медицина, философия, «Медицинские законы».



Abstract: This article contains brief information about the life style, scientific heritage of the great scholar and encyclopedist Abu Ali Ibn Sina, who grew up in the Middle Ages in the Middle Eastern Muslim world, in the territory of Central Asia. Also, among the scientist's works, there are opinions about the translations into Latin and how important they were for the development of science.

Key words: Abu Ali ibn Sina, Bukhara, Isfahan, Hamadan, Abu Rayhan Beruni, Abu Sahl Mashihi, Gurganch, medicine, philosophy, "Medical Laws".

KIRISH. Ilm-fan tarixiga nazar tashlaydigan bo'lsak, asrlar davomida ushbu sohaning yuksak darajada rivojlanganiga guvoh bo'lamiz. Uzoq davrlar davomida ilm-fanda katta yutuqlar kuzatilib, vaqtlar o'tishi bilan uning ko'plab tarmoqlari shakllandi. O'tmishda mazkur tarmoqlar doirasida ilm-fan bilan shug'ullangan bir qancha olimlarning faoliyatiga nazar tashlaydigan bo'lsak, ularning qanchalik yuqori natijalarga erishganligiga guvoh bo'lishimiz mumkin. Bunday natijalarga erishgan olimlardan biri qomusiy olim, buyuk alloma bo'lgan Abu Ali ibn Sino hisoblanadi.

Yevropada Avitsenna nomi bilan mashhur bo'lgan Abu Ali ibn Sino qomusiy olim sifatida o'z davridagi fanlarning deyarli barchasi bilan shug'ullangan. Uning dunyoning juda ko'p qo'lyozma xazinalarida saqlanib kelayotgan falsafa, tabobat, fizika, kimyo, matematika, geologiya, astronomiya, botanika, din tarixi, musiqa, she'riyat va boshqa fanlarga oid asarlari allomaning buyuk iste'dod sohibi va yirik qomusiy olim sifatida shuhrat qozonganining yorqin timsolidir.

Abu Ali ibn Sino tarjimai holining boshlang'ich qismini o'zi yozib qoldirgan bo'lib, muallifning hayot yo'li va ilmiy faoliyatining so'nggi yillari haqida olimning iltimosiga binoan uning sodiq shogirdi Jurjoniy bayon qilgan. Ibn Sinoning hayotiga qisqacha nazar tashlaydigan bo'lsak, alloma 980-yili Buxoro yaqinidagi qishloqda tug'ilib, yoshligi



Afshonada o'tadi. So'ng uning ota-onasi Buxoroga ko'chib keladi va u Buxoroda mavjud bo'lgan ilmiy muhit ta'sirida ko'p fanlar bilan qiziqib shug'ullanadi. Uning yoshligi va o'spirinlik yillari Buxoroda somoniylarning hukmronlik davriga to'g'ri keladi. Bo'lajak olim saroy kutubxonasidagi kitoblardan foydalanadi, shahardagi kitob bozoridan noyob qo'lyozmalarni sotib olib bilimini oshira boradi.

999-yilda somoniylar hukumati qulab, shaharni qoraxoniylar bosib oladi. Ibn Sino bu davrda barcha ilmlarni egallagan va hatto risolalar yoza boshlagan edi. XI asr boshlarida ibn Sino Gurganchga ko'chib keladi va Ma'mun saroyidagi olimlar bilan tanishadi. Bu yerda Abu Rayhon Beruniy, Abu Nasr ibn Iroq, Hammor, Masihiy kabi yirik olimlar davrasida ijod qilib, bir necha risolalar yaratadi. Lekin janubdan Mahmud G'aznaviy davlatining hujumi orta borishi tufayli ibn Sino Eron tomonga yo'l oladi. Eronning Jurjon, Ray, Isfahon kabi qator shaharlarida sarson-sargardonlikda umr kechirib, 1037-yili 57 yoshida Hamadonda kasallikdan vafot etadi.¹

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA. Ilmiy adabiyotlarda Ibn Sino qalamiga mansub 450 dan ortiq asar qayd etiladi. Ammo bizning davrimizgacha ularning 242 tasi yetib kelgan bo'lib, ulardan 80 tasi falsafa, ilohiyot va tasavvufga tegishli, 43 tasi tabobatga oid, 19 tasi mantiqqa, 26 tasi psixologiyaga, 23 tasi tibbiyot ilmiga, 9 tasi etikaga, 4 tasi adabiyotga va 8 tasi boshqa olimlar bilan bo'lgan ilmiy yozishmalarga bag'ishlangan.

Ibn Sino yunon, arab, fors olimlarining kitoblarini, Muhammad Xorazmiy, Abu Nasr Farobiy, Abu Bakr ar-Roziy, Ahmad Farg'oniy kabi vatandoshlarining asarlarini o'rgandi, ularga ijodiy yondashdi. Uning kitoblari va yozishmalari qadimgi yunon ilmi vakillari bo'lgan Aristotel, Platon, Yevklid, Fales, Geraklit, Suqrot, Pifagor, Galen, Gippokrat kabi olimlar asarlaridan yaxshi xabardor ekanini ko'rsatadi. Ko'p manbalarda ibn Sino avvalo

¹ Уватов У. Буюк юрт алломалари. – Тошкент: O'zbekiston, 2020. – 67-бет.



tabib sifatida talqin etiladi, holbuki tabobat uning ilmiy sohalari orasida eng muhimlaridan biri bo'lgan. Ibn Sino asarlarining asosiy qismi Yaqin va O'rta Sharqning o'sha davr ilmiy tili hisoblangan arab tilida, ba'zilar fors tilida yozilgan. Uning bizga ma'lum bo'lgan katta asari "Kitob ash-shifo" 22 jildidan iborat bo'lib, 4 ta katta bo'limini mantiq, fizika, matematika, metafizikaga doir masalalar egallagan. Uning ayrim qismlari lotin tiliga, Yevropadagi boshqa tillarga, sharq tillariga, shuningdek, rus, o'zbek tillariga tarjima qilingan.²

Ibn Sinoning ilmiy merosini shartli ravishda 4 qismga, ya'ni falsafiy, tabiiy, adabiy va tibbiy sohalarga bo'lish mumkin, olim shularning har birida chuqur iz qoldirgan. Lekin Ibn Sino asarlarining miqdoriy nisbatiga nazar solsak, olimning qiziqish va e'tibori ko'proq falsafa va tibbiyotga qaratilganini ko'ramiz. Garchi, uni "Avitsenna" sifatida G'arbda mashhur qilgan uning tibbiy merosi, xususan, "Tib qonunlari" bo'lsada, "Shayx ur-Rais" nomi, avvalambor, uning buyuk faylasufligiga ishoradir. Yuqorida nomi keltirilgan "Kitob ash-shifo" asari olimning falsafaga oid eng yirik va muhim asari hisoblanadi.

Ibn Sinoning yana bir falsafiy asari "Kitob annajot" "Kitob ash-shifo" ning qisqartirilgan shakli bo'lib, u ham qisman jahonning bir necha tillariga tarjima qilingan. Olimning falsafiy qarashlari yana "Al-ishorat vattanbihot", "Hikmat al-mashriqiyn", "Kitob al-ishorat filmantiq va al-hikmat", fors tilida yozilgan "Donishnoma" va boshqa turli hajmdagi falsafiy risolalarda hamda "Tayr qissasi", "Salomon va Ibsol", "Hayy ibn Yaqzon", "Yusuf haqida qissa" kabi falsafiy mazmunli badiiy qissalarda o'z aksini topgan. Ibn Sinoning dunyoqarashi Aristotel ta'limoti va Forobiy asarlari ta'sirida shakllandi. Uning fikricha, falsafaning vazifasi mavjudotni, ya'ni barcha mavjud narsalarni, ularning kelib chiqishi, tartibi, o'zaro munosabati, bir-biriga o'tishini zaruriyat, imkoniyat, voqelik, sababiyat omillari asosida har tomonlama o'rganishdan iborat.³

² Хайруллаев М. Маънавият юлдузлари. – Тошкент: А. Кодирий, 1999. – 87-бет.

³ Sagdullayev A. O'zbekiston tarixi. 1-kitob. – Toshkent: VNESHINVESTPROM, 2019. – 464-бет.



MUHOKAMA. Ibn Sino jahonga mashhur tabib sifatida tanilgan. Olimning shoh asari hisoblangan “Tib qonunlari” unga misli ko`rilmagan shuhrat keltirdi. O`z mazmuniga ko`ra bu asar tibbiy bilimlarning nodir majmuasi – qomusi hisoblanadi. Tarkibiy jihatdan bu asar 5 ta mustaqil kitobdan tashkil topgan bo`lib, ularning har biri tibbiyot ilmining ma`lum sohasini izchil, har taraflama yoritib beradi.

Mazkur asarning birinchi kitobida tibbiyotning nazariy asoslari, uning predmeti, vazifalari, bo`lim va usullari, kasallikning kelib chiqish sabablari, belgilari, sog`liqni muhofaza qilish yo`llari, inson anatomiyasi kabi nazariy ma`lumotlar bayon etiladi.

“Tib qonunlari” ning oddiy dorilarga bag`ishlangan ikkinchi kitobida, asosan, o`simliklardan tayyorlanuvchi 760 ta dorining xususiyatlari, ularni tayyorlash va iste`mol qilish usullari haqida muhim fikr-mulohazalar keltiriladi.

Uchinchi kitobda insonning ayrim a`zolari, jumladan, bosh miya, asab, ko`z, quloq, burun, tomoq, qorin kasalliklari batafsil tahlil qilinadi.

Asarning to`rtinchi kitobi inson organizmining umumiy kasalliklariga bag`ishlangan. Unda isitmalar, jarrohlik masalalari, suyak sinishi, jarohatlanish, ularni davolash usullari va yuqumli kasalliklar tavsiflanadi.

Nihoyat, “Tib qonunlari” asarining beshinchi kitobida murakkab dorilarning inson tanasiga ta`siri, ularni tayyorlash va iste`mol qilish usullari bayon qilingan.

“Tib qonunlari” asari XII asrdayoq lotin tiliga tarjima qilingan bo`lib, bu asar sakkiz asr davomida ham Sharq, ham G`arb mamlakatlarida tabobat sohasidagi asosiy qo`llanma vazifasini o`tab kelmoqda. U Yevropada tibbiyot rivojiga katta ta`sir ko`rsatdi.⁴

XI asrning boshlarida yozib tugatilgan “Tib qonunlari” ning ko`p sonli qo`lyozma nusxalari tarqalib, tibbiyot ilmi bo`yicha eng mukammal asarga aylanadi. U Sharqda

⁴ Уватов У. Буюк юрт алломалари. – Тошкент: O`zbekiston, 2020. – 68-бет.



naqadar mashhur ekanligini jahonning turli kutubxonalarida saqlanayotgan qo'lyozmalarning ko'pligidan ham bilsa bo'ladi. Eron olimi Yahyo Maxdaviyning "Fihristi nusxahoi musannafoti Ibn Sino" nomli kitobining o'zida "Tib qonunlari" ning 130 nusxasi keltirilgan. O'zbekiston Fanlar akademiyasi Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik institutida ham "Tib qonunlari" ning uch qo'lyozmasi saqlanadi. Shulardan eng qadimiysi 1308-yilda ko'chirilgan to'liq nusxadir. Sharqda ko'p olimlar, xususan, Muhammad Iloqiy Fahriddin Roziy, Muhammad Naxchivoniy, Ibn an-Nafis, Qutbiddin Sheroziy, Mahmud Chag'iniy, Abdulloh Oqsaroiy, Sadididdin Kozaruniy, Abdurahmon Misriy, Hakim Ali Jiloniy, Is'hoqxon ibn Ismoilxon, Hakim Shifoixon va boshqa "Tib qonunlari" ga sharxlar yozdilar, uni qisqartirib "Qonuncha" nomi bilan kichik qo'llanmalar tuzdilar.

"Tib qonunlari" ning arabcha matni birinchi marta 1593-yil Rimda, keyinchalik Qohira, Tehron, Laknav va Lohurda ham chop etildi, "Qonun" ko'p o'tmay G'arb mamlakatlarida ham shuhrat topdi. 1130-yil tarjimonlar guruhi tashkil qilinadi va kremonalik Gerard "Tib qonunlari" ni arab tilidan lotin tiliga tarjima qilishga kirishadi, biroq bu ishni keyin XIII asrda yashagan Gerard oxiriga yetkazadi. Umuman "Tib qonunlari" lotin tilida 40 martadan ortiq to'la holda nashr etilgan. Ayrim qismlarining nashri esa son-sanoqsizdir. XIX asrga kelib Yevropada "Tib qonunlari" ga bo'lgan qiziqish orta boshladi va uning ayrim qismlari nemis, fransuz, ingliz tillariga tarjima qilindi. Abu Ali ibn Sino "Tib qonunlari" asarining jahonshumul tarixiy ahamiyatini shu narsadan ham bilish mumkinki, bu kitob to XVIII asrning oxirlariga qadar ham G'arbiy Yevropaning tibbiy o'quv yurtlarida asosiy o'quv qo'llanmasi bo'lib xizmat qilgan.⁵

NATIJA. Ibn Sino ilmiy merosini o'rganish ishlari yangi davrga kelib jadal tus oldi va natijada chet el hamda O'zbekistonda maxsus ilmiy yo'nalish – sinoshunoslik vujudga keldi. "Tib qonunlari" ning lotincha tarjimasi to'liq holda 40 marta nashr etildi. Uning ayrim qismlari nemis, ingliz va fransuz tillariga tarjima qilindi, olimning falsafiy va boshqa

⁵ Shamsutdinov R., Karimov Sh. Vatan tarixi. 1-kitob. – Toshkent: Sharq, 2010. – 231-bet



sohalarga oid asarlari ham jahonning bir necha tillarida nashr etildi, uning ijodiga oid qator yirik tadqiqotlar yaratildi. Jahonning turli kutubxonalarida Ibn Sino asarlarining qo'lyozmalari saqlanadi, shu jumladan, O'zbekiston Fanlar akademiyasi Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik institutida ham alloma qalamiga mansub 50 asarning 60 ta qo'lyozmasi mavjud. Yevropa olimlari Ye. Bishmann, Yu. Rus-ka Karra de Vo, X. Korbin, Kruz Xernandez, L. Garde, A. M. Guashon, X. Ley, P. Morividj, J. Saliba hamda arab, turk va eron olimlari M. U. Najotiy, A. N. Nodir, J. Sh. Qanavotiy, Said Nafisiy, Yahyo Maxdaviy, Umar Farrux, E. Ihsono'g'lu, F. Rahmon, M. Muso, H. G'araba, M. Shohvardiy va boshqa Ibn Sino ijodini o'rganishga ma'lum hissa qo'shdilar. Rossiyalik olimlardan Ye. E. Bertels, A. Ya. Borisov, I. S. Braginskiy, S. I. Grigoryan, B. A. Petrov, B. A. Rozenfeld, V. N. Ternovskiy, A. V. Sagadeyev, M. M. Rojanskaya, Tojikiston olimlaridan S. Ayniy, M. Dinorshoyev, T. Mardonov, N. Rahmatullayev, A. Bahovuddinov, Yu. Nuraliyev bu yo'nalishning rivojlanishiga xizmat qildilar. O'zbekistonda Ibn Sino asarlarini tarjima va tadqiq etishda sharqshunos olimlar S. Mirzayev, A. Murodov, A. Rasulov, U. I. Karimov, Yu. N. Zavadovskiy, A. A. Semyonov, M. A. Salye, P. G. Bulgakov, Sh. Shoislomov, E. Talabov, H. Hikmatullayevlar ulkan ishlarni amalga oshirdilar. T. N. Qori-Niyoziy, I. M. Mo'minov, M. M. Xayrullayev, M. N. Boltayev, A. Axmedov, G. P. Matviyevskaya, V. K. Jumayev, N. Majidov, O. F. Fayzullayev, M. B. Baratovning monografiya va maqolalarida Ibn Sino ijodining turli qirralari tadqiq etilgan. Rus antropologi M. M. Gerasimov, bir necha tarixiy shaxslar qatori, Ibn Sinoning ham kalla suyagi asosida haykalportretini yaratgan. Andijon tibbiyot instituti xodimlari, ya'ni Y. O. Otabekov, Sh. H. Hamidullin, Ye. S. Sokolovlar Ibn Sinoning ilmiy asoslangan timsolini haykal-byustda tasvirladilar.

O'simliklarning birinchi ilmiy tasnifini yaratgan mashhur shved botanigi Karl Linney doimo yashil bo'lib turuvchi bir tropik daraxtni Ibn Sino sharafiga Avitsennia deb atadi. 1956-yilda O'zbekiston yerida topilgan yangi mineral Ibn Sino nomi bilan Avitsennit deb



ataldi. Buxoro shahri va Afshona qishlog'ida Ibn Sinoga haykal o'rnatildi, Belgiyaning Kortreyk shahrida ham Ibn Sinoga qo'yilgan haykal bor. Afshonada Ibn Sino muzeyi ochildi. O'zbekiston va Tojikistondagi tibbiy oliy va o'rta bilim yurtlariga, nashriyotga, sanatoriya, shifoxona, kutubxona, maktab, ko'cha, turar joy mavzalariga Ibn Sino nomi berildi. Tojikistonda fan sohasida katta yutuqlarni taqdirlash uchun Ibn Sino nomidagi respublika davlat mukofoti ta'sis etilgan. O'zbekistonda 1999-yilda Ibn Sino xalqaro jamg'armasi tuzildi.

XULOSA. Ibn Sino ilmiy merosini o'rganish borasida ko'p ishlar amalga oshirildi. Hozirgacha dunyo miqyosida uning asarlari qator tillarga tarjima etildi va ko'plab ilmiy asarlar, tadqiqotlar yaratildi. Jumladan, uning yirik asari "Tib qonunlari" olimning vatani O'zbekistonda birinchi marotaba arab tilidan rus va o'zbek tillariga tarjima qilindi va ilmiy izohlar bilan nashr etildi.

Mustaqillik yillarida Ibn Sinoning hayoti va ilmiy faoliyatini chuqur o'rganish va keng jamoatchilik orasida targ'ib qilish borasida e'tiborga molik ko'p ishlar amalga oshirildi. Ibn Sinoning betakror ilmiy merosi atoqli vatandoshimizning insoniyat tarixidagi eng buyuk qomusiy olimlardan biri ekanini isbotidir.

"Tib qonunlari" asarini hozirgi zamon tillariga tarjima qilishni O'zbekiston sharqshunoslari o'z zimmalariga oldilar, ular asarning 5 kitobini arabchadan o'zbek va rus tillariga tarjima qilib, 1954 – 1961-yillari Toshkentda shifokorlar bilan hamkorlikda nashr etdilar. "Tib qonunlari" ni arabchadan o'zbek tiliga tarjima qilishda sharqshunos olimlardan A. Rasulev, S. Mirzayev, U. Karimov, A. Murodov, A. Qayumov, A. Urinboyev va Q. Munirovlar qatnashgan. Ruscha tarjimasida M. A. Salye, U. Karimov, Y. N. Zavadovskiy, P. G. Bulgakov, S. Mirzayev va A. Rasulovlar ishtirok etganlar.

1980-yilda Ibn Sino tavalludining 1000-yilligi munosabati bilan "Tib qonunlari" ning qayta ishlangan o'zbek va rus tillaridagi U. Karimov tomonidan tayyorlangan to'liq nashri



1979 – 1983-yillarda chop etildi. Shundan so`ng “Tib qonunlari” o`zbek va rus tillarida muxtasar shaklda yana 4 marta, rus tilida to`liq stereotip shaklda yana 2 marta nashr bo`ldi. Bu tarjimalar asosida zamonaviy tibbiyot va dorishunoslikning turli sohalariga oid ilmiy kitoblar nashr etish hozir ham davom etmoqda.

FOYDALANILGAN MANBA VA ADABIYOTLAR RO`YXATI:

1. Қаюмов А. Абу Райхон Беруний. Абу Али ибн Сино. – Тошкент: Ёш гвардия, 1987.
2. Уватов У. Буюк юрт алломалари. – Тошкент: O`zbekiston, 2020.
3. Хайруллаев М. Маънавият юлдузлари. – Тошкент: А. Кодирый, 1999.
4. Shamsutdinov R., Karimov Sh. Vatan tarixi. 1-kitob. – Toshkent: Sharq, 2010.
5. Sagdullayev A. O`zbekiston tarixi. 1-kitob. – Toshkent: VNESHINVESTPROM, 2019.
6. Muhammadiyev O. Abu Ali ibn Sino. – Buxoro, 2023.